

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING BARQAROR RIVOJLANISHINI BAHOLASHGA YONDASHUVLAR

Norboyev Sarvar Azodovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanish holati tahlil qilingan. So‘rovnoma va statistik tahlil usullari asosida mintaqaviy darajadagi iqtisodiy infratuzilma, moliyaviy kirish imkoniyatlari va normativ muhit baholangan. Shuningdek, soliq imtiyozlari hamda kredit yengilliklari biznes rivojini qo‘llab-quvvatlashda, byurokratik to‘siqlar va malakali kadrlar tanqisligi kabi omillar salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani asoslab berilgan. Shu orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tizimli qo‘llab-quvvatlash zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, barqaror rivojlanish, mintaqaviy siyosat, moliyaviy kirish imkoniyati, byurokratik to‘siqlar.

Аннотация

В данном исследовании был проведен анализ устойчивого развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Хорезмской области, а также дана оценка экономической инфраструктуры, доступа к финансированию и нормативно-правовой среды на региональном уровне на основе анкетирования и методов статистического анализа. Также утверждается, что, хотя налоговые льготы и кредитные линии способствуют развитию бизнеса, они также имеют негативные последствия, такие как бюрократические препоны и нехватка кадров, что обосновывает необходимость систематической поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства с учетом региональных особенностей устойчивого развития.

Ключевые слова: Малый бизнес, частное предпринимательство, устойчивое развитие, региональная политика, финансовый доступ, бюрократические препятствия.

Abstract

This study analyzes the sustainable development of small business and private entrepreneurship in the Khorezm region, assesses the economic infrastructure, financial access, and regulatory environment at the regional level based on questionnaires and statistical analysis methods. It also establishes that tax incentives and credit facilities support business development, but have negative effects such as bureaucratic obstacles and staff shortages, and thus justifies the need for systematic support for small business and private entrepreneurship, taking into account the regional characteristics of sustainable development.

Keywords: Small business, private entrepreneurship, sustainable development, regional policy, financial access, bureaucratic obstacles.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Bu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasida bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirish masalasi qabul qilingan strategik hujjatlarda o‘z ifodasini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida[1] kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ularning moliyaviy resurslarga kirishini kengaytirish, soliq yengilliklari va kredit siyosatini liberallashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekistonning boshqa hududlarida ham tadbirkorlik muhitini baholash va strategik qarorlar qabul qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan universal uslub va yondashuvlar ilgari surilmoqda. Shu bois, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ilmiy asoslangan va tizimli yondashuvni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada kichik biznes subyektlariga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosiy chora-tadbirlarning natijadorligini doimiy ravishda monitoring qilish, tahlil asosida mintaqaviy farqlarni aniqlash va moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Ushbu jarayonlar tegishli vazirliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda mahalliy hokimliklar hamkorligida amalga oshirilishi kerak. Ularni samarali amalga oshirish uchun esa ishonchli va kompleks baholash tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi, shuningdek, ularning institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ko‘plab manbalarda yoritilgan.

A. Shapero va L. Sokol kabi olimlar xorijda kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi va mintaqaviy xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq nazariy-uslubiy masalalarni tadqiq qilganlar[2].

Shuningdek, bu sohaning taraqqiyoti ko‘plab boshqa sohalarning ilmiy tahliliga ham bog‘liqdir. Jumladan, MDH olimlaridan V. Belenkiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda boshqaruv masalalarini ilgari surgan[3].

O‘zbekistonda esa M. Muxammedov va Y. Urunboyeva kabi olimlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishidagi rolini aholi bandligini ta‘minlash bilan bog‘lab tahlil qilganlar[4].

Shuningdek, iqtisodchi olim A. Vahobov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kichik tadbirkorlikni tartibga soluvchi mexanizmlar, normativ-huquqiy baza hamda mintaqaviy siyosatni takomillashtirish masalalari keng yoritilgan[5]. Ayniqsa, uning izlanishlarida mintaqalararo farqlarni hisobga olgan holda mahalliy xususiyatlarga moslashtirilgan siyosat ishlab chiqish zarurligi ta‘kidlab o‘tilgan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish darajasini baholash uchun rasmiy statistik ma'lumotlar, tahliliy hisobotlar va normativ hujjatlar asos sifatida tanlandi. Ma'lumotlar tizimli tahlil usuli yordamida qayta ishlanib, ularning o'zgarish dinamikasi, hududlar kesimidagi farqlari va rivojlanish omillari o'zaro solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining 2024-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,3 foizni, Xorazm viloyatida esa 72,3 foizni tashkil etgan. 2030-yilgacha bu ko'rsatkichlarni mos ravishda 60 foiz va 75,9 foizga yetkazish maqsad qilingan bo'lib, bu yo'nalishdagi harakatlar kichik biznesning bandlikni ta'minlash va hududiy iqtisodiy faollikni oshirishdagi asosiy rolini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot doirasida ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan birlamchi empirik ma'lumotlarni to'plash uchun sotsiologik so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovnoma Xorazm viloyatining Urganch shahri, Xiva, Gurlan, Bog'ot va boshqa tumanlarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari vakillari o'rtasida o'tkazildi. Respondentlar qulay tanlov (convenience sampling) usuli asosida tanlab olindi, chunki bu usul mintaqaviy sharoitlarda samarali va amaliy hisoblanadi.

Umumiy hisobda 230 nafar respondentga so'rovnoma tarqatildi, shundan 208 tasi to'g'ri to'ldirilgan va tahlil uchun yaroqli, deb topildi. So'rovnoma savollarida kichik biznes faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida moliyaviy resurslarga kirish, soliq yengilliklari, infratuzilma mavjudligi, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsional qo'llab-quvvatlash darajasi hamda byurokratik to'siqlar kabi omillar kiritildi.

Yig'ilgan ma'lumotlar statistik jihatdan tavsifiy (descriptive statistics) va xulosaviy (inferential statistics) tahlil asosida qayta ishlangan. Tavsifiy tahlil doirasida respondentlarning taqsimoti, javob chastotalari va foiz ifodalari hisoblab chiqildi. So'rov natijalari asosida kichik biznesga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun Pearsonning momentlar ko'paytmasi korrelyatsiya koeffitsiyenti (r) va determinatsiya koeffitsiyenti (r^2) qo'llanildi.

Korrelyatsion tahlil yordamida quyidagi bog'liqliklar baholandi:

- Moliyaviy kirish imkoniyati va biznes o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik;
- Normativ imtiyozlar va innovatsion faollik o'rtasidagi aloqadorlik;
- Byurokratik to'siqlar va tadbirkorlik faoliyati barqarorligi o'rtasidagi salbiy

korrelyatsiyalar.

Statistik tahlil SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturiy vositasi yordamida amalga oshirildi. Tahlil natijalari asosida mustaqil o'zgaruvchilar (hukumat siyosati, infratuzilma va moliyalashtirish sharoitlari) bilan bog'liq o'zgaruvchi (kichik biznesning rivojlanish darajasi) o'rtasida sezilarli statistik munosabatlar aniqlangan.

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyatidagi kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning statistik o'zaro

bog‘liqligini baholashga qaratilgan. So‘rovnoma va statistik tahlil asosida quyidagi natijalar kuzatildi (1-jadval):

1-jadval

Xorazm viloyatidagi kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarning bog‘liqligi natijalari¹

Omil nomi	Korrelyatsiya koeffitsiyenti (r)	Determinatsiya koeffitsiyenti (r ²)	Bog‘liqlik turi
Moliyaviy kirish imkoniyati	0.72	0.52	Kuchli ijobiy bog‘liqlik
Soliq va normativ yengilliklar	0.66	0.43	O‘rtacha ijobiy bog‘liqlik
Byurokratik to‘siqlar	-0.58	0.34	O‘rtacha salbiy bog‘liqlik

1-jadval natijalaridan ko‘rinishicha, kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil moliyalashtirish imkoniyatidir. Korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0.72$ bo‘lib, bu kuchli ijobiy bog‘liqlikni anglatadi. Boshqacha aytganda, moliyaviy resurslarga qulay kirish imkoniyati mavjud hududlarda tadbirkorlik sezilarli darajada faolroq rivojlanmoqda. Soliq yengilliklari va normativ soddalashtirish choralarning ta’siri ham yetarlicha ijobiy bo‘lib, $r = 0.66$ qiymatini tashkil etgan. Bu esa kichik biznes uchun qulay muhit yaratilgan taqdirda, ularning iqtisodiy faolligi oshishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, byurokratik to‘siqlar va biznes rivoji o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan ($r = -0.58$). Bu ko‘rsatkich tartib-taomillarning murakkabligi, ruxsat olishdagi kechikishlar va ortiqcha hujjatchilik kichik tadbirkorlikning kengayishiga to‘siq bo‘layotganini anglatadi. Mazkur natijalar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Xususan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, soliq va ruxsat berish tizimidagi soddalashtirishlarni kengaytirish, shuningdek, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish uchun zamin yaratadi.

Ushbu tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, ularning ilmiy asoslanganligi quyidagi jihatlar orqali isbotlanadi:

Birinchidan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va biznes rivoji o‘rtasidagi kuchli ijobiy bog‘liqlik ($r = 0.72$) kichik tadbirkorlik subyektlari uchun kapitalga ega bo‘lish imkoniyatining nihoyatda muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu topilma J. Shumpeterning innovatsiya nazariyasi va G. Beckerning inson kapitali nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari moliyaviy imkoniyatlar mavjud bo‘lgan hududlarda kichik biznesning kengayish sur’atlari yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Ikkinchidan, soliq va normativ yengilliklar bilan biznes faolligi o‘rtasidagi sezilarli bog‘liqlik ($r = 0.66$) davlat siyosatining me’yoriy-moliyaviy yo‘nalishda

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdagi rolini tasdiqlaydi. Bu holat BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Jahon banki (World Bank)ning 2020–2022-yillardagi hisobotlarida keltirilgan xalqaro tajribalar bilan uyg‘un keladi. Ayniqsa, bunday siyosatlar tadbirkorlikni rasmiylashtirish, investitsiya xavfsizligini ta‘minlash va ichki bozorga integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, byurokratik to‘siqlar va biznesning barqaror rivoji o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlik ($r = -0.58$) mintaqaviy iqtisodiy muhitda huquqiy va institutsional cheklovlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu kuzatuvlar amerikalik iqtisodchi D. North tomonidan ilgari surilgan institutsional nazariyaga mos keladi. U qonunchilikdagi soddalik, hujjatlar aylanishining aniqligi va mustaqil sud-huquq himoyasi mavjudligini iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti deb baholagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari Xorazm viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, moliyaviy resurslarga erkin va oson kirish imkoniyati kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatini kengaytirish va mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslarini liberallashtirish va normativ-huquqiy tartibga solishni soddalashtirish kichik biznes subyektlarining tashabbus ko‘rsatishini rag‘batlantiradi, ularning bozorga kirish imkoniyatlarini oshiradi.

Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirish esa tadbirkorlik muhitining shaffofligi va ochiqqligini kuchaytirish orqali investitsion muhitga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining uzluksiz monitoringi va ilmiy asoslangan tahlili mavjud muammolarni erta aniqlash, ijobiy tendensiyalarni baholash va samarali qarorlar ishlab chiqish imkonini yaratadi.

Tavsiya etiladigan chora-tadbirlar:

- Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shu jumladan mikromoliya institutlari va investitsiya fondlari faoliyatini rivojlantirish orqali kredit va investitsiya manbalarini ko‘paytirish.
- Byurokratik cheklovlarni kamaytirish, ma‘muriy yuklarni yengillashtirishga qaratilgan institutsional islohotlarni tizimli ravishda davom ettirish.
- Ilmiy-amaliy monitoring tizimini yaratish, tahliliy hisobotlar asosida siyosiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishni takomillashtirish.

Taklif etilgan chora-tadbirlar nafaqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror o‘shishini ta‘minlaydi, balki hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. Shapero A., Sokol L. The Social Dimensions of Entrepreneurship. *Encycl. Entrep.* 1982, — p. 72-90.

3. Беленький В.Х. Предпринимательство и менеджмент: вопросы соотношения и подготовки кадров. // Международная научно-практическая конференция «Модернизация подготовки управленческих кадров России в контексте мировой системы образования», сборник материалов [Электронный ресурс]. — Красноярск: Сибирский федеральный ун-т, 2012.

4. Muxammedov M.M., Urunboyeva Y.P. Kichik tadbirkorlik va qishloq aholisi bandligi. *Monografiya.* — Samarqand: Zarafshon, 2014. — 22-23 b.,

5. Vahobov A.V. Kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari. — T.: Iqtisodiyot, 2020. — 124 b.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**